

Abdullayeva Dildoraxon Zumratbekovna
Andijon davlat universiteti professori, f. f. d. (DSc),
Madaminova Zebijahonbegim Xurshidjon qizi
Andijon davlat universiteti magistranti,
tel.: (91) 169-74-57, e-mail: khurmad@mail.ri
UDK. 821.161.1.0-313.1

“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONLARIDA FALSAFIY-AXLOQIY QADRIYATLAR

Annotatsiya: Maqolada “Yusuf va Zulayho” dostonlaridagi Yusuf va Zulayho obrazlari qiyosiy-tipologik tahlil qilish orqali asarning axloqiy-ma’naviy hamda falsafiy-adabiy jihatlari o’rganilgan. Yusuf va Zulayho mavzusining Sharq adabiyotida mashhur bo’lish sabablarini umumlashtirish orqali muhim xulosalarga kelingan.

Kalit so’zlar: “Yusuf va Zulayho” dostoni, Yusuf timsoli, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, Zulayho obrazi, tasavvufiy-falsafiy mazmun, tasavvufiy qarashlar.

Абдуллаева Дилдорахон Зумратбековна
Андижанский государственный университет, профессор, д.ф.н. (DSc),
Мадаминаова Зебижахонбегим Хуршиджон кизи
Андижанский государственный университет, магистрант
тел.: (91) 169-74-57, e-mail: khurmad@mail.ri

ФИЛОСОФСКИЕ И МОРАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ В ПОЭМАХ “ЮСУФ И ЗУЛЕЙХА”

Аннотация: Статья посвящена изучению морально-духовных и философско-литературных истоков произведения посредством сравнительно-типологического анализа образов Юсуфа, Зулейхи в эпических поэм “Юсуф и Зулейха”. Выявлены возможности получения важных выводов путем обобщения процесса такого художественного развития темы Юсуфа и Зулейхи.

Ключевые слова: поэма “Юсуф и Зулейха”, образ Юсуфа, социально-нравственные ценности, образ Зулейхи, мистико-философское содержание, мистические ценности.

Abdullayeva Dildorakhon Zhumratbekovna
Andijan State University, professor, DSc.,
Madaminova Zebijakhonbegim Khurshidjon kizi
Andijan State University, master-student,
phone: (91) 169-74-57, e-mail: khurmad@mail.ri

PHILOSOPHICAL AND MORAL VALUES IN THE EPIC POEM OF “YUSUF AND ZULAYKHA”

Annotation: The article is devoted to the study of the moral-spiritual and philosophical-literary origins of the work through a comparative-typological analysis of the images of Yusuf and Zulaykha in the epic poem “Yusuf and Zulaykha”. The possibilities of drawing important conclusions by generalizing the process of such artistic development of the theme of Yusuf and Zulaykha were identified.

Key words: The epic poem “Yusuf and Zulaykha”, the image of Yusuf, socio-moral values, the image of Zulaykha, mystical-philosophical content, mystical values.

Kirish

Sharq adabiyoti, xususan o‘zbek adabiyoti tarixida “Yusuf va Zulayho” mavzusi juda mashhur bo‘lgan. Bu syujet asosida xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham ko‘plab asarlar yaratilgan. Sayyor syujet hisoblanuvchi “Yusuf va Zulayho” dostolarining har biri o‘z o‘rnida original, ya’ni mustaqil asar hisoblanadi. Har bir muallif ushbu qadimiy syujetni qalamga olar ekan, o‘z davri muhiti va turli masalalarini badiiy tasvirlagan.

Adabiyotlar tahlili

Insoniyat tafakkuri va shuurining bemisl mahsuli bo‘lgan Yusuf payg‘ambar haqida yaratilgan badiiy asarlar, qissa va dostonlar har bir davr uchun muhim ma’naviy boylik hisoblanadi [1]. Bunday asarlarning tili, go‘yaviy-badiiy va

qiyosiy-tipologik xususiyatlari, ulardagi timsollar va obrazlar bizga doimo o'tmishdan o'gitlar va kelajak haqida bashorat qilmoqchiday tuyuladi [1-2].

Bundan tashqari, ming yillar mobaynida payg'ambarlar haqidagi ma'lumotlar faqat ilohiy kitoblardagina qolib ketmasdan, balki bunday ibratli lavhalar axloqiy-ta'limiy asarlar syujetining ko'rkam namunasi sifatida insonlar qalbi orqali xalq og'zaki ijodi hamda yozma badiiy adabiyotga chuqur kirib borib, o'z aks-sadosini bergan. Keyinchalik mazkur aks-sado ilhom sarchashmasi bo'lib, xalq og'zaki ijodi va yozma badiiy adabiyotda yangidan-yangi badiiy asarlarning yaratilishi uchun g'oyaviy-ma'naviy manba bo'lib xizmat qilgan [3].

Har bir qissa, har bir doston o'ziga xos bir san'at, ular nafaqat bizga axloqiy-ta'limiy, ma'naviy-ruhiy jihatdan dars beradi, balki asarlar o'z davrining ijtimoiy-siyosiy ahvolini, xalqning adabiyotga, she'riyatga munosabati, ularning ma'naviy yetukligi, diniy qarashlari, turmush tarzi va qadriyatlari, o'zaro aloqa-munosabatlari kabi turli masalalar haqida ma'lumotga ega bo'lishimizga yordam beradi. Har bir asar nafaqat o'zi yaratilgan davr haqida, balki muallifi haqida ham qimmatli ma'lumotlar bera oladi. Boshqa adabiy asarlar singari Yusufnomalarning mualliflari haqidagi talay ma'lumotlar ularning o'z asarlaridan topilgan [4-5].

“Yusuf va Zulayho” dostonlari Sharq xalqlari adabiyotida diniy-ma'naviy ildizlarga boy bo'lgan eng mashhur syujet hisoblanadi. Uning asl manbalari - muqaddas kitoblar Tavrot, Injil, Qur'oni karim hisoblanadi [2, 4, 6].

Tadqiqot metodologiyasi

Ilohiy manbalardan ilhomlanib yaratilgan Sharq adabiyoti namunalarida Yusuf obrazi poklik, sabr, halollik, adolat, ilohiy nur va komillik timsoli sifatida tasvirlanadi. “Yusuf va Zulayho” dostonlarining turli variantlarida Yusuf obrazining mohiyati o'zgarmagan bo'lsa-da, uning badiiy va g'oyaviy talqini mualliflar dunyoqarashi va adabiy-estetik qarashlariga ko'ra farqlanadi. Har bir muallif Yusuf obrazi orqali axloqiy va ma'naviy yetuklik g'oyasini ilgari suradi, biroq ularni tasvirlash usuli va ta'sir doirasi turlicha [3].

Turkiy “Yusuf va Zulayho” dostoni [4]da Yusuf obrazi real hayotiy voqealarga yaqinlashtirilgan holda tasvirlanadi (ko'p hollarda Durbekka nisbat

beriluvchi, biroq muallifi munozarali bo'lganligi uchun maqola mualliflari keyingi o'rinlarda "turkiy" doston deyishni afzal bilishdi). Unda Yusuf sabr-toqatli, halol, fidoyi, oilasiga sadoqatli, vatanparvar, irodali shaxs sifatida g'aydalanadi. U Zulayhoning tuhmatiga uchraydi, zindonga tashlanadi, biroq adolat va halollikdan chekinmaydi. Yusuf qiyinchiliklarga sabr bilan chidaydi, bu orqali insonning har qanday og'ir vaziyatda o'z axloqiy prinsiplariga sodiq qolishi mumkinligini namoyon etadi. U tush ta'bir qilishdagi donoligi bilan Misr podshohining e'tiborini qozonadi va mamlakat boshqaruviga ko'tariladi. Shu orqali Yusuf timsolida rahbarlik fazilatlar, donolik, xalqparvarlik, kechirimlilik kabi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar ilgari suriladi [5].

Jomiy esa Yusuf obrazini chuqur tasavvufiy-falsafiy mazmun bilan boyitadi. Uning asarida Yusuf nafaqat insoniy fazilatlar, balki ilohiy haqiqatning ramzidir. U Allohning nuri sifatida tasvirlanadi. Zulayhoning unga bo'lgan muhabbati aslida ilohiy haqiqatga yetishish yo'lidagi ruhiy intilish sifatida talqin qilinadi. Yusufning har bir harakati - sabr qilishi, haromdan tiyilishi, zindonda ham haqiqatdan chekinmasligi - tasavvufda talab etiladigan nafsni tiyish, ilohiy nurga sodiqlik, ruhiy poklik kabi ma'naviy normalarni aks ettiradi. Jomiy o'z dostonida Yusuf obrazini "ishq yo'lidagi yetuk orif" darajasiga ko'taradi [6].

Tahlil va natijalar

Shunday qilib, har ikkala doston mualliflari Yusuf obrazini axloqiy-ruhiy yetuklik namunasi sifatida talqin qiladi. Turkiy "Yusuf va Zulayho" dostonidagi bu obraz orqali ijtimoiy hayotda halollik, sabr, fidoyilik kabi qadriyatlarni targ'ib etilsa, Abdurahmon Jomiy Yusuf timsoli orqali ruhiy poklik, ilohiy haqiqatga sadoqat, ishqning ma'naviy darajasi kabi tasavvufiy qadriyatlarni ilgari suradi. Bu obraz ikki turli g'oyaviy kontekstda - biri dunyoviy-insoniy, ikkinchisi ruhiy-ilohiy-yoritilishi bilan o'zbek va fors-tojik adabiyotida badiiy tafakkurning qamrovini namoyon etadi.

"Yusuf va Zulayho" dostonlarining yakuniy xulosalari asarlarning asosiy g'oyasi, diniy-falsafiy mazmuni va axloqiy tamoyillarini yakunlovchi muhim qism bo'lib xizmat qiladi. Har ikki asarda - turkiy dostonida va Abdurahmon Jomiy

tomonidan yozilgan variantda - voqealar farqli tarzda yakunlansa-da, ularning har biri o'ziga xos falsafiy-axloqiy xulosalarni beradi. Bu xulosalar orqali mualliflar o'quvchini sabr, sadoqat, halollik, poklanish, ruhiy yuksalish va muhabbatning yuksak mohiyatini anglashga undaydi.

Turkiy doston an'anaviy epik tuzilishga ega bo'lib, unda Yusuf Zulayhoni kechiradi, unga uylanadi, oilaviy baxtga erishadi va Misrni adolat bilan boshqaradi. Dostonning bu yakuni orqali kechirimlilik, halollik, axloqiy komillik va rahbarlik donoligi kabi qadriyatlar targ'ib qilinadi. Yusuf unga yomonlik qilgan akalarini ham kechiradi, ularni jazolash o'rniga mehr-muruvvat bilan muomala qiladi. Bu holat muallif insonga xos eng oliy fazilatlar - sabr-toqat, kechirish, rahmdillik, fidoyilik kabi g'oyalarni ilgari suradi. Zulayho esa nihoyat o'z sevgisiga yetishadi, ammo bu muhabbat orqali u komillikka yetgan, o'zini anglagan ayol sifatida tasvirlanadi. Asarning xulosasi xalqona, hayotiy ruhda yozilgan bo'lib, oddiy o'quvchining ma'naviy tarbiyasiga xizmat qiluvchi yo'nalishga ega [7].

Jomiy dostoni esa mutlaqo boshqa darajadagi - tasavvufiy-falsafiy mazmun bilan yo'g'rilgan [8]. Asarning yakunida Yusuf ilohiy nur darajasiga ko'tariladi, Zulayho esa o'z hirsini yengib, ruhiy yuksalishga erishgan orifga aylanadi. Uning ishq "ishq-i majoziy"dan "ishq-i haqiqiy"ga aylanib, oxir-oqibat Allohga yetishish vositasiga aylanadi. Bu orqali Jomiy nafsni yengish, ruhiy poklanish, Allohga sodiqlik, fano va baqo, taslim bo'lish kabi tasavvufiy qadriyatlarni ilgari suradi. Doston yakunida Zulayho va Yusuf o'rtasidagi muhabbat ramz darajasiga ko'tarilib, u orqali insonning ilohiy haqiqatga yetishishi aks ettiriladi [9].

Shu o'rinda dostonlarda Yusuf obrazi bilan birga tavsiflanuvchi Zulayho obrazi orqali axloqiy-falsafiy qarashlarning tadriji haqida ham so'z yuritishni o'rinli deb hisoblaymiz. "Yusuf va Zulayho" dostonlarida Zulayho obrazi ishq yo'lida ruhiy o'zgarish va komillik sari intilayotgan ayol timsolida tasvirlanadi [10]. Har ikki doston variantlarida bu obraz bilan bog'liq bo'lgan voqealar o'ziga xos yo'nalishda rivojlanadi, lekin har ikkala doston orqali mualliflar muayyan g'oyaviy-axloqiy qadriyatlarni taranum qilishga muvaffaq bo'lishgan. Zulayho

obrazining murakkabligi va xarakteridagi yuksak insoniy fazilatlarining bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanishi uni Sharq adabiyotidagi eng kuchli ayol obrazlaridan biriga aylantiradi [11].

Turkiy dostonida Zulayho obrazi birinchi navbatda tashqi go'zallik va jismoniy muhabbatga berilgan ayol sifatida paydo bo'ladi. U Yusufni tushida ko'rib, uning go'zal jamoliga oshiq bo'ladi, uni sevib qoladi. Uning sevgisi dastlab ehtiros, so'ng esa hasrat va sabr-toqatga aylanadi. U Yusufni o'ziga rom etishga urinadi, biroq Yusufning pokligi va sabr-toqati bu Zulayhoning bu kabi maqsadlarni amalga oshishiga yo'l qo'ymaydi [12]. Natijada alamzada Zulayho Yusufga tuhmat qiladi, biroq bu tuhmat oxir-oqibat uning o'ziga iztirob olib keladi. Bu bosqichda Zulayho obrazi orqali muallif nafsga berilish, qonun-qoidalarini buzish, hissiy ekstremizm kabi illatlarni tasvirlaydi [13].

Keyingi bosqichda Zulayho Yusufdan ayrilgach, o'z muhabbatini chuqur his qilib iztirob chekadi, ichki poklanishga yo'l oladi. U Yusufga bo'lgan tuyg'ularini tan oladi, tavba qiladi, hatto ruhiy jihatdan yangilanish sari yo'naladi. Doston yakunida Zulayho Yusuf bilan oila quradi, ya'ni uning muhabbati yakuniga yetadi. Bu orqali muallif sadoqat, chin muhabbat, poklanish va kechirim kabi ahloqiy sifatlarni ilgari suradi. Zulayho o'z xatolarini tushunib, ruhiy yuksalishga erishadi. Uning muhabbati ehtirosdan sadoqatga, nafsdan vafoga, tuhmatdan izzatga o'sib boradi [4].

Jomiy dostonida esa Zulayho ancha murakkab va ramziy obraz sifatida tasvirlanadi. Bu asarda u nafaqat ayol obrazi, balki tasavvufiy ramz sifatida ham talqin qilinadi. Doston boshida Zulayho Yusufni jismonan sevuvchi ayol sifatida ko'rinadi. Ammo bu muhabbat, Jomiyning tasavvufiy qarashlariga ko'ra, ilohiy nur sari intilishning ibtidosidir [9]. Zulayho Yusufga oshufta bo'lish orqali aslida Allohni izlaydi. U nafs istaklaridan voz kechadi, Yusufga yetolmasligini tushunadi va bu yo'ldagi azob-uqubatlar orqali komillikka erishadi. Asarning yakunida Zulayho Allohga yaqinlashgan, ruhiy jihatdan yuksalgan orif darajasiga yetadi [6].

Abdurahmon Jomiy Zulayho obrazini tasvirlar ekan, tasavvufda "ishq-i majoziy" orqali "ishq-i haqiqiy"ga (ilohiy muhabbat) yetishish g'oyasini ilgari

suradi. Zulayho bu jarayonning tipik namunasi sifatida ko'rsatiladi: u nafs istagini yengadi, sabr qiladi, poklanadi va ilohiy haqiqatni anglaydi [8-10].

Demak, Zulayho obrazi har ikki dostonning g'oyaviy tuzilmasida o'zgaruvchan, dinamik obraz bo'lib, dastlab ehtirosli, biroq keyinchalik komillikka intiluvchi ayol timsolida namoyon bo'ladi. Turkiy "Yusuf va Zulayho" dostonida u insoniy his-tuyg'ularning sadoqat bilan tozalangan shaklini ifodalasa, Abdurahmon Jomiy asarida Zulayho ruhiy sayr va ma'naviy yuksalish yo'lini bosib o'tuvchi orif sifatida gavdalanadi. Bu ikki xulosa Sharq adabiyotidagi ikki asosiy g'oyaviy yo'nalishni - bir tomondan hayotiy-axloqiy realizmni, boshqa tomondan esa ruhiy-falsafiy idealizmni (Jomiy) ifodalaydi. Turkiy "Yusuf va Zulayho" dostonida muallifning hayotiy saboqlari o'quvchini axloqiy qadriyatlar sari yetaklasa, Jomiy o'quvchini ma'rifiy yuksalish sari yo'naltiradi.

Xulosa

Demak, turkiy "Yusuf va Zulayho" dostoni insoniy axloqiy fazilatlarning g'alabasini, Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub asar esa ruhiy kamolot va ilohiy ishqqa yetishishning mukammal bosqichini ifodalaydi. Har ikkala doston ham o'z davri va badiiy maqsadiga muvofiq tarzda o'quvchining ongida poklik, sabr, kechirim, sadoqat va yuksak muhabbatga asoslangan axloqiy-falsafiy qadriyatlarni shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar Yusuf va Zulayho mavzusining badiiy ishlanish jarayonini kuzatish asosida sayyor syujet genezisiga xos qiyosiy-tipologik xususiyatlarni oydinlashtirish hamda umumlashtirish zahirida ma'lum nazariy xulosalarga kelish imkoniyatini kengaytiradi. Shu sababli, ulardan o'zbek mumtoz adabiyotining ilmiy tarixini yaratishda, badiiy adabiyot ta'limi mazmunini yanada teranlashtirishda, oliy va o'rta umumta'lim maktablari, akademik litseylar uchun o'zbek adabiyoti tarixi fani bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish, tavsifanomalarni ishlab chiqishda, maxsus kurslar o'qitishda, g'oyaviy-axloqiy, mafkuraviy tashviqot va targ'ibot ishlarida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Abdullayeva D.Z. Alisher Navoiy ijodida “Yusuf va Zulayho” mavzusi. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari. Halqaro konferensiya materiallari, 2023. V. 4, №1, -PP. 134.
2. Babadjanova N. Yusuf va Zulayho dostoni syujetining genezisi va badiiy evolyutsiyasi. - Toshkent: Fan, 2024, - 236 b.
3. Alibekova R. “Yusuf va Zulayho” dostonlarida obraz yaratish uslubi. - Toshkent: Navro‘z, 2016. - 152 b.
4. Durbek. Yusuf va Zulayho. - Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. - 160 b.
5. Ismoilov H. O‘zbek adabiyotida tasavvufiy obrazlar va mafkura. - Toshkent: Universitet, 2017. - 176 b.
6. Jomiy A. Yusuf va Zulayho. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1977. - 215 b.
7. Karimov B. Sharq mumtoz adabiyotida ramziy va allegorik obrazlar. - Toshkent: Muharrir, 2018. - 204 b.
8. Elboyev V. Manuscripts of the Poem “Yusuf and Zuleykha” and their State. “University Bulletin”. Tajik State Pedagogical University named after Sadriddin Aini (TSPU). - 2014. - №4. - PP. 319-324.
9. Элбоев В. Қиссаи “Юсуфу Зулайхо” дар адабиёти форси тоҷикии асрҳои X-XV (масъалаи гузариши мазмунҳои образҳои динӣ ба адабиёти бадеӣ). -Душанбе: Дониш, 2015. - С. 320.
10. Пригарина Н.И. Красота Йусуфа в зеркалах персидской поэзии и миниатюрной живописи // Пригарина Н.И. Мир поэта – мир поэзии. Статьи и эссе. - М.: Институт востоковедения РАН, 2012. - С. 225.
11. Рейснер М.Л. Кораническая история Йусуфа в персидской поэтической классике X-XV веков (лирический мотив и романический сюжет). Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 13. Востоковедение. 2014. № 4. – С. 4-16.
12. Самойлович А.Н. К какой из турецких литератур относится роман XIII века “Иосиф и Зулейха”? Тюркское языкознание. Филология. Сост. и отв. ред. Г.Ф. Благова, Д.М. Насилов. М.: “Восточная литература”. - 2005.- С. 371.
13. Yormatova D. Yusuf va Zulayho (nasriy bayon). - Toshkent: Navro‘z. - 2014. -192 b.